



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ASILBEK ABDURAIMOV

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti

ONA TILI DARSLIKLARIKA BIR NAZAR

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada davlatimiz tomonidan ona tilimizga qaratilayotgan e'tibor, uni bolalara o'qitish, ona tilini soqligini saqlab qolish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekanligi misollar bilan keng yoritib berilgan. Maqolada asosiy e'tibor ona tili grammatikasida yo'l qo'yiladigan xato va kamchiliklar va buning yechimlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Davlat tili, davlat dasturi, grammatika, alifbo.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta'lrim-tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishidan kelib chiqadi.

Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridan oq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lrim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitishning eskicha usullari zamon talabiga to'la javob berolmay qoldi. O'qituvchilarning o'qitish tizimidagi o'rmini belgilash hozirgi kunning muhim masalasidir. Hozirgi zamon maktab o'qituvchisi mumkin qadar mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatish yo'lidan bormog'i lozim. Buning uchun unda chuqr bilim, tajriba, iqtidor va shu bilan birga, bolalarga bilimni yetkaza olish mahorati bo'lishi zarur. Boshqacha aytganda, o'qituvchi zamon bilan hamnafas faoliyatda bo'lmog'i muhim.

Bugungi kunda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g‘oyasini o‘zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Ona tili darsliklaridagi ayrim o‘rnlarni tahlil etishga kirishsak.

49-mashq. Maqollarni ko‘chiring, bilinar-bilinmas talaffuz qilinayotgan unlilarga diqqat qiling. Har bir maqolni og‘zaki sharhlang.

1. Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani.
2. Bilmaslik ayb emas, bilishga tirishmaslik – ayb.
3. Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, olim bo‘lsang, takror qil.
4. Bilimli kishi o‘zar, bilimsiz kishi to‘zar.
5. Ilm-u hikmat suvni yondirar. (“O‘zbek xalq maqollari”)

Yuqoridagi 49-mashqqa e’tibor qaratamiz. Mashq shartida ta’kidlanganidek, bilinar-bilinmas unli tovushlarni topish va sharhlash lozim. Qarangki, unday tovushlar to‘g‘risida mutlaqo 2-, 3-, 4-, 5-sinf ona tili darsliklarida tushuncha berib o‘tilmagan.

Mashqda topshiriq berildimi, demak, undan oldin mavzu doirasida bilinar-bilinmas talaffuz qilinadigan unli tovushlarga ham qisqacha ta’rif berilishi kerak. Masalan, qanday so‘zlarda unlilar, ya’ni tor unlilar bilinar-bilinmas talaffuz qilishi to‘g‘risida. Agarda davlat dasturida bunga ruxsat berilmagan bo‘lsa, mana shu yo‘sindagi mashqlarning shartini o‘zgartish lozim.

5-sinf ona tili darsligidagi quyidagi qoidaga ham e’tiboringizni qaratamiz:

undosh tovush hisoblanadi. Tilimizda quyidagi 24 ta undosh tovush bor: b, d, f, g, h, j, dj, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g‘, sh, ch, ng.

Tilimizda 24 ta undosh tovush mavjud. Nega 23 ta emas. Undosh tovushlarni ifodalovchi harflar 23 ta, ammo tovushlar 24 ta. Chetdan kirib kelgan so‘zlarni ifodalovchi tovushlarni ham milliy tovushlar safiga kiritib oldik bir amallab. Aslida, o‘sha biz nazarimizda tutayotgan **dj** tuvushni tovushlar qatoriga kiritmasdan ham o‘z holicha talaffuz qilaversak bo‘ladi. Barmoq bilan sanaladigan so‘zlardagina **dj** tovushi ijodalanadi.

Agarda ushbu **dj** tovushini ham tovushlar sirasiga kiritadigan bo‘lsak, birinchi navbatda **i**, **u**, **o** tovushlarining ikki xilda talaffuz qilinishini ham hisobga olib (turk alifbosidagi kabi), tilimizda 24 ta undosh tovush va 9 ta unli tovush bor deb qoida belgilashimiz darkor. Ana o‘shanda maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aslini olganda-ku, **dj** tovushini, umuman, chiqarib tashlab, o‘sha chetdan kirib kelgan so‘zlarni ham o‘zimizning **j** tovushi bilan ifodalab, talaffuz qilishimiz lozim. **Xuddi ruslar**

Qodiriyni “Kadiriy” deb talaffuz qilganlaridek. Nega deysizmi? Chunki bizda **dj** tovushi yo‘qligiga o‘xshab ularda **q** tovushi yo‘q. Ular chetdan kirib kelgan so‘zlarni o‘zlarining tilidagi tovushlarga moslab talaffuz qilishadi. Xulosa aniq. Milliy ruhdan uzoqlashayotganimiz mana shunaqa kichik narsalardan boshlanadi-da.

116-mashq. Amir Temur o'g'itlari bo'yicha bahslashing. Ikkinci gapni kirill yozuviga o'giring.



1. Kim bizning qudratimizga shubha qilsa, biz qurgan binolarga qarasin.

2. Farzandlar, qarindoshlar, qo'shnilar va do'stlarni davlat-u ne'mat martabasiga erishganimda unutmadi, haqlarini ado etdim.

117-mashq. Maqollarni lotin yozuviga o'giring. Unda ilgari surilgan g'oya haqida bahslashing.


1. Узоқдаги қариндошдан яқиндаги қўшни яхши. 2. Гилам сотсанг, қўшнингга сот, бир четида ўзинг ўтирасан. 3. Яхши ҳамсоя (қўшни) – гул, ёмон ҳамсоя – чўл. 4. Қўшнинг ёмон бўлса, кўчиб қутуласан. 5. Қўшнингга ёмонлик тилама.

O'zbekiston hukumati «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qoidalari istisnosiz va so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rib, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, hukumat qaror va farmonlari, reklama hamda e'lolnarning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida chiqarilishi to'liq ta'minlanayotgan bir paytda ona tili darsliklarimizni yaratayotgan mutasaddilarning maktab o'quvchilariga "kirill" alifbosini o'rgatish, yodlatish bilan ovvora.

Yuqoridaq 116-mashqning shartiga e'tibor qarating, "...ikkinci gapni kirill yozuviga o'giring". Ushbu jumlalar o'rniga Amir Temur tuzuklarini yod oling qabilida shart berilganida maqbul bo'lar edi. 117-mashqni esa umuman darsliklardan uloqtirish darkor. Kirill alifbosidan chiqqa olmay deyarli bir asrdan buyon sarson-sargardonlikda yuribmiz, endi kelajak avlodga ham kirillni o'rgatamizmi?

Shuningdek, qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra tasniflanishida biror chizmalar bilan ifodalansa, o'quvchilarning o'r ganishi oson bo'ladi. Negaki o'quvchi o'qib, xotirasida saqlab qola olmagan ma'lumotlarni ko'z xotirasi orqali esda saqlab qolishi oson va sodda bo'lar edi. Masalan:

Qoshimchalar tasnifi



6-sinf ona tili darsligining “Ot” mavzusida ham “Ot nom bildiruvchi so‘z turkumi bo‘lib, shaxs, narsa, joy ma’nolarini anglatadi...” degan qoida bor. 7-sinfda “Kelishiklar” mavzusida esa “O‘rin-payt kelishigi qo‘srimchasi shaxs va narsa otlariga qo‘silib kimda? nimada? so‘roqlariga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi bo‘lib keladi, o‘rin-joy otlariga qo‘silib **qayerda?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda o‘rin holi vazifasida keladi, payt otlariga qo‘silib **qachon?** so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda **payt holi** vazifasida keladi (Masalan: Tunda (qachon) yo‘lga chiqamiz”). Yuqoridagi qoida jo‘nalish va chiqish kelishiklarida ham kuzatiladi. Haqiqatan ham tun, tong, shom, namozgar kabi so‘zlar payt ma’nosini bildiruvchi otlar sanaladi. Bizningcha, agar 6-sinfdagи otlarning ma’no turlariga payt otlari ham kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maktabda ona tili fanidan “Yordamchi so‘zlar” mavzusida ochiq dars o‘tdik. Bu mavzu 7-sinfda o‘tilganlarni takrorlash mavzularidan bo‘lgani uchun darslikdagi mashq shartiga ko‘ra o‘quvchilar berilgan 15 ta so‘zni yordamchi so‘zning *ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama* turlarining har biriga beshtadan joylashtirishlari lozim edi. Barcha guruhlardagi o‘quvchilar **go‘yo** yordamchisini bog‘lovchiga olishdi va bu xatoligini bildirsak, ustozlari shunaqa deganini aytishdi. O‘sha ustozni ham to‘g‘ri tushungan holda vaziyatdan chiqishga harakat qildik. **Go‘yo** yordamchisi 7-sinfda yuklama deb, 9-sinfda qiyoslash-chog‘ishtiruv bog‘lovchisi deb qaralmoqda. Men birgina o‘rta maktabning 6-7 sinf darsliklaridagi ba’zi bir xilma-xillikni misol qildim xolos. Bunaqa holatlar boshqa darsliklarda ham ko‘zga tashlanadi. Agar biz bugun umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklaridagi turli xil yondashuvlar, chalkashliklarni o‘z o‘rnida aniqlik kiritib, bartaraf qilmasak, o‘quvchilarimiz ertaga ta’limning keyingi bosqichlarida ham “kecha”ning ilmiy xulosalaridan qoniqmasligi tayin.

6-sinf ona tili darsligida “Sifat yasovchi qo‘srimchalar va ularning imlosi” mavzusidagi qoida quyidagicha: **-gi** guruhidagi qo‘srimchalari payt (**o‘zi darsliklarda otlarni ma’no turlarga ajratishda payt otlari haqida ma’lumotlar berilmagan**) va o‘rin otlariga qo‘silib, payt va o‘ringa xos belgini bildiradi.

Munosabat. Qo‘srimcha tarzda *payt ravishlariga ham qo‘shiladi* deyish to‘g‘ri bo‘lar edi. CHunki bu qo‘srimchalarni payt ravishlariga ham qo‘shib, belgi bildiruvchi sifatlar hosil qilsa bo‘ladi. Jumladan, **kechki, ertalabki, so‘nggi** kabi.

Aynan mana shu darslikda “**-miz,-siz,-man,-san** qo‘srimchalari ravishdosh, sifatdosh shakllaridan so‘ng qo‘shiladi” deyilgan.

ESDA SAQLANG. O‘tgan zamonning **-di** hamda kelasi zamon shart mayli **-sa** shakllaridan so‘ng **-m, -ng, -k, -ngiz** qo‘srimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe’lning hozirgi zamon shakllaridan so‘ng **-man, -miz, -san, -siz** qo‘srimchalari qo‘llaniladi.

Munosabat. Qo‘srimcha tarzda ravishdoshning **-b, -ib**, sifatdoshning **-gan, -r, -ar** shakllari **-man, -miz, -san, -siz** qo‘srimchalarini oladi deb ta’kidlanganda aniq bo‘lar edi.

Chunki ravishdosh va sifatdosh shakllarining barchasi ham bu qo'shimchalarni olmaydi. Masalan, (sifatdosh shakllari) -(a)yotgan,-ydigan,-adigan; (ravishdosh shakllari) -gach,-guncha,-gancha, -gani.

Amaldagi 6-sinf ona tili darsligida **-gan** sifatdosh hosil qiluvchi qo'shimchasi lug'aviy shakl yasovchi deb ko'rsatilgan (N.Mahmudov, A.Sobirov, D.Nabieva, 57-bet). Uning kesimlik ko'rsatkichi sifatida zamon shaklini ham ifodalashi esa 5-sinf ona tili darsligida qayd etilgan: **O'qigan bola** – sifatdosh. **Feruza kitoblarini o'qigan** – sof fe'l. Bunda mazkur qo'shimchaning zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalab, kesimlik shakli vazifasida ham kelishi tushuntiriladi. Demak, 6-sinf darsligida bu jihatlar yana bir marotaba esga olinishi maqsadga muvofiq.

Darsliklardagi misollar nazoratida xatoliklarga yo'l qo'yilishi qancha-qancha o'quvchini chalg'itishi, noto'g'ri ma'lumotni miyasiga joylashini tasavvur qilyapsizmi? Agar vaqtida buning oldi olinmasa, o'quvchilarimiz bilim olishidagi, imtihon topshirishidagi ikkilanishlar davom etaveradi.

Millatparvarlarning yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniy haqida o'qir ekansiz, uning dastur va darsliklari gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgani, eng avvalo, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatish, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy qobiliyatini shakllantirish kabi ulkan maqsadlar qo'yilganiga guvoh bo'lasiz.

Bugun-chi? Bugun ham millat ziyolilari ta'lim va tarbiya yo'lida bir dam to'xtagani yo'q. Innovatsion oqimlar inson ong-u shuurini zabt etishga ulgurgan bir pallada hech bir kishiga oson tutib bo'lmaydi. Ammo gap o'quv kitoblari, xususan, adabiyot darsliklari haqida borar ekan, arzimas ko'ringan zarraday kamchiliklardan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.G'ulomov, H.Ne'matov. Ona tili ta'limi mazmuni. O'qituvchi –T.: 1995 y.
2. I.Mirzayev, G'.Hamroyev. Ona tili o'qitish metodikasi.O'quv-uslubiy majmua. – Smarqand: 2013 y.
3. O'zbek tilinig izohli lug'ati. –M.: 1981 y, 1-jild. 392 b.
4. B.Mengliyev, X.Suvonova "Ona tili"ni emas, "Ona tili"dan o'rgatish kerak. Til va adabiyot ta'limi jurnalı. 2017-yil, 10-son
5. D.Berdiev "Til – olamni bilish vositasi " // Til va adabiyot ta'limi jurnalı. 2017-yil, 10-son.
6. G'ofur Hamroyev. Fonetika, talaffuz va imlo. –Toshkent: 2013. 63 b.